

AGROKLASTER HUDDULARIDA YER MONITORINGINI OLIB BORISH PRINSIPLARI (JONDOR TUMANI MISOLIDA)

Sattorov Shahzod Yarashovich – o‘qituvchi

Kamolov Shohunjon Kamol o‘g‘li - magistr

Jo‘raqulov Fazliddin Faxriddinovich - talaba

Toshpo‘lotova Ruxshona Uyg‘un qizi - talaba

Teshayev Hasan Murtazoyevich - talaba

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash

muhandislari instituti “Milliy tadqiqot universiteti” Buxoro tabiiy resurslarni

boshqarish instituti.

Annotatsiya Maqolada Agroklaster hududlarida yer monitoringini olib borish prinsiplari afzalliklari to‘g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Agroklaster, yer maydonlari, monitoring, resurslardan samarali foydalanish, hosildorlik, ekologik barqarorlik, sug‘orish tizimlari.

Respublikamizda yer monitoringi bilan bog’liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish O’zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2000 yil 23 dekabrdagi 496-sonli qarori va ushbu qaror bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g’risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.O’zbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy rejimi, foydalanilish maqsadi va xarakteridan qat’i nazar, monitoring ob’ekti hisoblanadi. Ushbu qaror qishloq xo‘jaligi yerlarida yer monitoringini olib borish qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi yerlarida muntazam yer monitoringini olib borish bo‘yicha juda muhim hujjat bo‘lib xizmat qildi.

Qishloq xo‘jaligiga mo’ljallangan yerlarning umumiyligi maydoni 26 132,2 ming hektarni, shundan sug‘oriladigan yerlar 3 701,0 ming hektarni, ko‘p yillik

daraxtazorlar 427,8 ming gektarni, bo'z yerlar 79,8 ming gektarni, pichanzor va yaylovlar 16 704,9 ming gektarni, boshqa yerlar 3 997,66 ming gektarni tashkil qiladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash, yersuv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, respublika aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 foizga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqardi.

Uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligi yerlaridan nooqilona foydalanish natijasida tuproqning tabiiy unumдорligi va ekinlar hosildorligi pasayib, yetishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, atrof muhit ifloslanishi ortib bormoqda. Jumladan, sug'oriladigan ekin yerlaridagi tuproqlarning 94 foizida harakatchan fosfor miqdori, 65,7 foizida almashuvchan kaliy miqdori, 79,6 foizida gumus (chirindi) miqdori o'rtachadan past darajaga tushib qolgan. Milliy daromadi O'zbekiston bilan deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun davlat budgetining 4-5 foizi yo'naltiriladi yoki YaIMga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda 1 foizdan ortiqroqni, daromadi yuqori bo'lgan davlatlarda esa 1 foizdan kamroqni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida o'rtacha yillik suv sarfi 45 853 mln metr kub yoki iqtisodiyot tarmoqlarida iste'mol qilingan suv resurslarining 90 foizini tashkil etib, yuqoriligidcha qolmoqda. Yer va suv resurslari tobora tanqis bo'lib borayotgan sharoitda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirishda ekinlarni iqtisodiy samaradorligi va bozor kon'yunkturasi inobatga olinmasdan hamda intensiv qishloq xo'jaligi joriy

etilmaganligi sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolmoqda. Jumladan, rivojlangan davlatlarda 1 metr kub suv bilan 4-6 AQSh dollarlik mahsulot yetishtirilayotgan bo'lsa, respublikamizda bu ko'rsatkich 0,25 AQSh dollarini tashkil etmoqda. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalgaloshirish yirik kapital qo'yilmalar talab etishi, ushbu maqsadlar uchun yo'naltiriladigan budjet mablag'lari hajmining cheklanganligi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jalb qilish masalasiga e'tibor qaratilmayotganligi oqibatida qishloq xo'jaligi yerlarining foydalanishdan chiqib ketishi, hududlarning resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan nooqilona foydalanish kabi holatlar yuzaga kelmoqda, bu esa o'z navbatida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va tarmoq eksport salohiyatini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Prognozlarga ko'ra, kelgusi 30 yil mobaynida sug'oriladigan yer maydonlari yana 20-25 foizga qisqarishi mumkin. Yerdan foydalanish huquqining yetarli darajada kafolatlanmaganligi xo'jaliklarni boshqarish samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda va investitsiyalarni jalb qilishni cheklamoqda. Hozirgi vaqtda yer uchastkalarini taqsimlashning hamda yerdan foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilishning aniq va shaffof mexanizmlari to'liq yaratilmagan. Shuningdek, yer uchastkalarini ikkilamchi ijaraga berish nazarda tutilmaganligi qishloq xo'jaligi yerlarini nisbatan salohiyatlari yerdan foydalanuvchilarga o'tishiga to'sqinlik qilmoqda. Mamlakat suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanadi. Mazkur holat Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini barqaror boshqarish uchun mintaqaviy hamkorlikning muhimligini belgilaydi. Mamlakatda irrigatsiya tarmoqlarining 70 foizi filtratsiyaga qarshi qoplamaga ega emas, oqibatda suvning bir qismi dalagacha yetkazish jarayonida yo'qotilmoqda. Mavjud irrigatsiya infratuzilmasi, nasos stansiyalarining katta qismi 30-40 yildan ortiq foydalanimoqda va rekonstruksiya yoki kapital ta'mirga muhtoj. Hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarning faqatgina 1,7 foizida tomchilatib sug'orish joriy etilgan. Dehqonchilikning irrigatsiyaga yuqori darajada bog'liqligi sababli

an'anaviy sug'orish uslublarini qo'llashning davom etayotganligi hamda iqlim o'zgarishi natijasida qurg'oqchilikning keskin kuchayishi bilan vaziyat yanada murakkablashishi mumkin. Jahon resurslari institutining prognoziga ko'ra, 2040 yilga borib O'zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo'lgan 33 ta mamlakatning biriga aylanadi. Hosildorlikning kamayishi oziq-ovqat xavfsizligi va to'lov balansi uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, bu esa suv resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi.


Yerlarning holati o'zgarishlarning yo'nalishi va jadalligiga oid bir qancha izchil kuzatishlarni (davriy, mavsumiy, sutkalik) tahlil qilish, olingan ko'rsatkichlarni yerlarning sifat holati normativlari bilan taqqoslash orqali baholanadi. Yer holatini baholash ko'rsatkichlari muayyan davr yoki sana uchun ham absolyut, ham nisbiy ko'rsatkichlarda (o'lchov birligida) ifodalanadi. Yerlar holatini baholash natijalariga ko'ra tezkor ma'lumotlar, axborotlar, prognozlar va tavsiyanomalar tuziladi, ularga o'zgarishlar, ayniqsa salbiy o'zgarishlarning dinamikasini, ularning yo'nalishini va jadalligini tavsiflovchi mavzuli xaritalar, kartogrammalar, jadvallar va diagrammalar ilova qilinadi.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatdor vazirliklari va idoralari ishtirokida amalga oshiriladi.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari uyma-uy aylanib chiqish yo'li bilan dehqon xo'jaliklari yer uchastkalaridan va tomorqa yerlaridan maqsadli va samarali foydalanishning, shu jumladan, erga ishlov berish, urug'lik, ko'chatlar va daraxtlar o'tqazish, issiqxonalar qurish, mol va parrandalar boqish holatining muntazam monitoringini olib borish huquqiga

egadir. Vazirliliklar va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirish O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi (qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha) va Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda yer monitoringi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda boshqa toifadagi yerlarda Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan manfaatdor vazirliliklar, davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan yagona uslub bo'yicha olib boriladi, bu uslub yerlarning holatini, tezkor va muntazam kuzatish ishlarini amalga oshiruvchi, tadqiqotlar, tekshirishlar o'tkazuvchi yoki xaritalovchi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

Idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yerlarni mavzuli xaritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yer resurslari va davlat kadastri bo'limlariga ularning vakolatlari doirasida yerlarning miqdori va sifati bo'yicha holati to'g'risidagi ma'lumotlarni yer monitoringi va davlat yer kadastri bo'yicha axborotlar (hisobotlar)ga kiritish uchun ko'rsatilgan ishlar bo'yicha materiallarning nuxalarini tekin beradilar. O'z navbatida yer resurslari va davlat kadastri bo'limlari ham yerlarni mavzuli xaritalovchi va ularning holatini kuzatuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ularning so'roviga binoan zarur materiallarning nuxalarini tekin beradilar. Yer monitoringi yagona klassifikatorlar, kodlar, metrik birlik tizimi, ma'lumotlarning standart formatlari va meyo'riy-texnik baza, koordinatlar va balandliklar davlat tizimiga asoslangan turli xil ma'lumotlarning bir-biriga mosligi prinsipiga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.



Yer monitoringini o'tkazishda zarur axborotlarni olish uchun quyidagilar qo'llaniladi:

- masofadan turib zondlash (aerokosmik suratga olish va cuzatishlar);
- yerda suratga olish va cuzatish;
- fond materiallari.

Ekin maydonlari, dalalar, uchastkalar, manzara-ekologiya komplekslari holatini bevosita cuzatishda olingan bazaviy (boshlang'ich) ma'lumotlar tumanlar, shaharlar, qo'rg'onlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha, shuningdek alohida tabiiy komplekslar bo'yicha umumlashtiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida erlarning bazaviy va davriy monitoringi — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastro boshqarmalari tomonidan yuritiladi. Yerlarning tezkor (navbatchi) monitoringi tumanlar va shaharlardagi bazaviy va davriy monitoring ma'lumotlaridan foydalangan holda — tumanlar (Quvasoy shahar) qishloq xo'jaligi bo'limlari va Kadastr agentligi tumanlar (shaharlar) bo'limlari tomonidan yuritiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo'jaligi boshqarmalari (qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha), Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari Davlat ekologiya qo'mitasining hududiy organlari bilan birgalikda har yili 1-fevraldan kechiktirmay mahalliy davlat hokimiyati organlariga, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga, Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligiga, Davlat ekologiya qo'mitasiga mintaqadagi yerlarning holati to'g'risida axborotlar (hisobotlar) taqdim etadilar, o'ta xavfli va yo'l qo'yilishi cheklangan jarayonlar aniqlanganda tezkor ma'lumotlar yuboradilar. Monitoringlar natijasiga ko'ra Jondor tumanidagi agroklasterlarni holati (2,3-jadvallar)

2-jadval

Buxoro viloyati Jondor tumanida 2023 yil hosili uchun paxta xom ashyosini xarid qilish bo'yicha paxta-to'qimachilik klasterlari bilan fermer xo'jaliklari o'rtasida shartnomalarning tuzilishi to'g'risida 2023 yil 26 aprel holatiga bo'lgan ma'lumot

№	Paxta-to'qimachilik klasterlari nomi	Paxta xom ashyosini yetishtirish prognoz ko'rsatkichlari	
		Soni	Maydoni (gektar)
1	"WBM Romitex" MChJ	224	6115
2	"Agroklaster R-Tex Qorako'l" MChJ	165	4590
3	Buxoro Agroklaster MChJ	7	223
4	BAHOR CHANCE	2	208
Jami		398	11136

3-jadval

Jondor tumanlarida 2023 yil hosilidan boshoqli don xarid qilish bo'yicha klasterlar bilan fermer xo'jaliklari o'rtasida tuzilgan fyuchers shartnomalar to'g'risida ma'lumot

№	Klasterlar nomi	Boshoqli don xarid qilish bo'yicha shartnoma tuzish prognoz ko'rsatkichlari				
		Soni	Maydoni (hektar)	Jami miqdori, tonna	shundan	
					Tovar don	Urug'lilik don
1	"WBM Romitex" MChJ	243	4096	10110	10110	
2	"Agroklaster R-Tex Qorako'l" MChJ	75	1294	3187	3187	
3	Buxoro Agroklaster MChJ	1	58	156	156	
4	"Yakkatut g'allachilik klasteri" MChJ	41	1266	3329	1829	1500
Jami		360	6714	16782	15282	1500

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- [1] “Yerlarni lazer niveliri y’ordamida tekislash bo‘yicha texnik yo‘riqnomalar” Urganch 2012 yil.
- [2] Спутник Технологиялари Асосида Автомобил Транспорт Воситалари Ҳаракатини Бошқариш Ба Назорат Қилиш ШЯ Сатторов, ЖС Асатов, ФФ Жўрақулов - o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [3] Global Iqlim O'zgarishi O'zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta'siri. SS Yarashovich, AJ Sayitkulovich, AI Hasan o'g'li... - O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [4] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan *online-conferences* 5 183
- [5] Sattorov S Y 2020 Use of aerocosmic methods and gis programs in construction of space data models of pastoral land *Current scientific research in the modern world*
- [6] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics *Journal agro processing*
- [7] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O ‘RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 5. – №. 1. – C. 235-237.

- [8] Сатторов Ш.Я, Мұхаммадов К., Бобожонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛАРНИ О ъРНИ //Эуро-Асиа Конференсес. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [9] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
- [10] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.
- [11] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛҒОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).
- [12] Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." *Агропроцессинг* SPECIAL (2020).
- [13] Ашраф, Мудасир, Ясс Худхейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». *Наука о данных*. Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.
- [14] [Geoportal visualization of state cadastre objects:\(a case study from Uzbekistan\)](#) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022
- [15] [Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan](#) S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024